

HUDUDLARNING IJTIMOY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimov Baxrom Baxodirovich

Urganch davlat universiteti mustakil tadkikotchisi

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning holati, shakllanish sabablari va ularni kamaytirish strategiyalari tahlil qilindi. Gini koeffitsienti, kvintil taqsimoti hamda statistik va fazoviy tahlil usullari orqali tengsizlikning dinamikasi aniqlanib, raqamli infratuzilmaning roliga alohida e'tibor qaratildi. Xalqaro tajriba asosida hududiy rivojlanishni barqarorlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari hududlar o'rtasidagi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: hududlararo tafovut, Gini koeffitsienti, raqamli tengsizlik, infratuzilma, fazoviy tahlil, ijtimoiy adolat, strategik rivojlanish

Аннотация

В данной работе проанализированы социально-экономические различия между регионами Узбекистана, их причины и возможные механизмы снижения неравенства. На основе показателей коэффициента Джини, квинтильного распределения и пространственного анализа исследована динамика дифференциации. Особое внимание уделено роли цифровой инфраструктуры. С учетом международного опыта предложены практические рекомендации по обеспечению сбалансированного регионального развития. Полученные результаты способствуют формированию научно обоснованных подходов к выравниванию социально-экономических условий между регионами.

Ключевые слова: региональные различия, коэффициент Джини, цифровое неравенство, инфраструктура, пространственный анализ, социальная справедливость, устойчивое развитие

Abstract

This study analyzes the socio-economic disparities between regions in Uzbekistan, focusing on their causes and potential mechanisms for mitigation. Using Gini coefficient, quintile distribution, and spatial analysis, the dynamics of regional inequality are evaluated. Special attention is given to the impact of digital infrastructure. Based on international experience, practical recommendations for balanced regional development are proposed. The findings contribute to the development of evidence-based approaches aimed at reducing interregional inequality and fostering inclusive economic growth.

Keywords: regional disparity, Gini coefficient, digital inequality, infrastructure, spatial analysis, social justice, sustainable development

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotining bardavomligi, birinchi navbatda, uning barcha hududlarida barqarorlik va muvozanatli o‘shishning ta‘minlanishiga bog‘liq. Hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning kamaytirilishi har qanday rivojlanish strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. Bu borada adolatli imkoniyatlar, infratuzilma xizmatlarining teng taqsimlanishi, bandlik va raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyati muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi jadal islohotlar bosqichiga kirgan mamlakatlar uchun ushbu masala strategik ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishga, hududlarni modernizatsiya qilish va ularning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga qaratilgan muhim davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Har bir viloyat, tuman va shahar o‘z iqtisodiy yo‘nalishini shakllantirish orqali umumiy milliy taraqqiyotga hissasini qo‘shmoqda. Bu esa, tabiiy ravishda, har bir hududda mavjud resurs va imkoniyatlarni to‘g‘ri boshqarish, mavjud farqlarni izchil yumshatish va iqtisodiy faollikni muvozanatli taqsimlashni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u nafaqat hududlar o‘rtasida mavjud tafovutlarning tub sabablari va ularning oqibatlarini tahlil qiladi, balki ularni bartaraf etish uchun amaliy va samarali strategik mexanizmlarni aniqlashga xizmat qiladi. Jahon amaliyotida isbotlangan yondashuvlar asosida, mahalliy sharoitga mos keladigan ilg‘or modellarni ishlab chiqish orqali iqtisodiy tenglik, ijtimoiy inklyuzivlik va hududiy uyg‘unlikni ta‘minlash mumkin.

Bugungi raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar davrida har bir hududning iqtisodiy imkoniyatlari faqat geografik joylashuvi bilan emas, balki u yerda yaratilgan sharoitlar, infratuzilma darajasi va inson kapitaliga qo‘yilgan e‘tibor bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, hududlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlar milliy siyosatning barqaror va uzoq muddatli muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

Ushbu mavzu nafaqat hozirgi islohotlar kontekstida, balki mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasi nuqtai nazaridan ham g‘oyat muhim hisoblanadi. Bu boradagi chuqur tahlil va asosli xulosalar siyosat yurituvchilarga samarali qarorlar qabul qilishda, hududlararo muvozanatga erishishda muhim poydevor vazifasini o‘taydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar muammosi ko‘plab ilmiy ishlarda chuqur o‘rganilgan bo‘lib, bu boradagi tadqiqotlar tengsizlikning sabablarini aniqlash,

uni yumshatish strategiyalarini ishlab chiqish va davlat siyosatini tahlil qilishga qaratilgan.

Hududiy rivojlanishni muvozanatli yuritish zarurati haqida Mirsaidov [1] ta'kidlaganidek, jahon amaliyotida klasterlash, zamonaviy infratuzilma va "aqlli shahar" yondashuvlari orqali farqlarni kamaytirish samarali bo'lmoqda. Bu fikr Bobonazarova [2] tomonidan O'zbekistondagi kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari orqali tasdiqlanadi. Ibrohimovich [3] esa ijtimoiy infratuzilmaning iqtisodiy o'sishga ta'sirini asoslab bergan. Bu manbalar ijtimoiy xizmatlarning teng taqsimlanishi hududiy farqlarga barham berishda asosiy omillardan ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Tal'atova [4] va Qazaqov [5] raqamli tengsizlik masalasiga e'tibor qaratib, internet va AKT xizmatlarining hududlar bo'yicha notekis rivojlanayotganini aniqlaydi. Bu holat iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, AKT texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi bandlik, sog'liqni saqlash va ta'limda tengsizlikni yuzaga keltiradi.

Rasmiy strategik hujjatlar, jumladan Shirinov [6] tomonidan tahlil qilingan rivojlanish konsepsiyalari, davlat darajasida hududlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning mavjudligini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar xalqaro tajriba bilan qiyoslanganida, Yang [7] tomonidan Xitoyda oliy ta'lim moliyalashtiruvining hududlar bo'yicha adolatli taqsimoti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liqdir.

Ekologik va ilmiy-texnik yondashuvlar ham tengsizlikni baholashda muhim. Fu va Van [8] tomonidan ishlab chiqilgan indekslar (Gini, Moran) orqali Xitoyda ilmiy-moliya va ekologik barqarorlik o'rtasidagi uyg'unlik tahlil qilingan. Bu yondashuvlar O'zbekiston uchun innovatsion rivojlanish strategiyalarini hududlar bo'yicha muvofiqlashtirishga asos bo'la oladi. Shuningdek, Atkin va hammualliflari [9] xalqaro savdoning "rivojlanish zinapoyasi" modeli orqali iqtisodiy tengsizlikning evolyutsion ko'rinishini tushuntirib bergan.

Aholining daromad bo'yicha qatlamlanishini tushuntirishda Abbasian va hammualliflarining [10] Eron misolida olib borgan fazoviy modellashtirish ishlari foydali uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv yordamida O'zbekistonda ham hududiy ijtimoiy tafovutlarni statistik jihatdan aniq ifodalash mumkin.

Xalqaro barqarorlik maqsadlari kontekstida Ridzuan va boshqalar [11] Malayziyada SDG 1 doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida kambag'allikni kamaytirishdagi ilmiy strategiyalarni yoritgan. Germaniyadagi tajribani tahlil qilgan maqola esa (Slechten va boshqalar [12]) ijtimoiy tengsizlikni yengillashtirishda siyosiy va madaniy yondashuvlarning o'rniga e'tibor qaratgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning shakllanishi va ularni kamaytirish yo'llari tizimli yondashuv asosida baholandi. Statistik tahlilda Gini

koeffitsienti, kvintil bo'yicha daromad taqsimoti va iqtisodiy tengsizlik indikatorlari asosiy mezon sifatida tanlandi. Dinamik o'zgarishlar 2010–2024 yillar oralig'idagi rasmiy ma'lumotlar asosida o'rganildi. Grafik va jadval vositalaridan foydalangan holda daromad va infratuzilma tafovutlari mintaqaviy kesimda tahlil qilindi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro tajriba, xususan Xitoy, Eron va Malayziya misollari asosida qiyosiy baholash o'tkazilib, raqamli infratuzilmaning tengsizlikka ta'siri chuqur tahlil qilindi. Natijalar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni baholash va ularni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish har bir mamlakat uchun barqaror rivojlanish siyosatining markaziy yo'nalishidir. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, hududlar o'rtasidagi farqlar o'zining murakkab tabiatiga ega bo'lib, bu tafovutlar faqat iqtisodiy ko'rsatkichlardagi nomutanosiblik bilan emas, balki ijtimoiy, infratuzilmaviy va texnologik omillar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu bo'limda tahlil qilingan statistik ma'lumotlar, empirik kuzatuvlar va ilg'or nazariy yondashuvlar asosida O'zbekistondagi hududlararo tafovutlarning holati va dinamikasi aniq ko'rsatib berildi.

Hududlar o'rtasida shakllanayotgan iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashuviga bir nechta tizimli omillar sabab bo'layotganini aniqlash mumkin. Ularning eng muhimlari — ishlab chiqarish infratuzilmasining nomutanosib rivojlanishi, markazlashgan investitsion oqimlar, infratuzilmaviy xizmatlarning sifati va mavjudligidagi tafovutlar hamda raqamli xizmatlardan foydalanishdagi imkoniyatlarning bir xilligi emasligidir [1], [3].

Yang Yu tomonidan Xitoy oliy ta'lim moliyaviy tizimi misolida tahlil qilingan konvergensiya ko'rsatkichlari (DEA va Gini indeksleri) yordamida aniqlangan farqlar O'zbekistonda ham kuzatilmoqda [7]. Mazkur holatlar asosan ta'lim, sog'liqni saqlash va yo'l-transport infratuzilmasi singari ijtimoiy xizmatlarning hududiy chegaralarda notekis taqsimlangani bilan izohlanadi. O'zbekiston hududlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy faollik markaziy shaharlarda yuqori, chekka va qishloq hududlarida esa past darajada qolmoqda.

Gini koeffitsientining yillik o'zgarish dinamikasi ham bu xulosani mustahkamlaydi. Quyidagi grafikdan ko'rinib turibdiki, 2010–2016 yillar oralig'ida ko'rsatkich nisbatan pasayib, 0.295 dan 0.262 ga tushgan, bu ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy konvergensiya dalolat beradi. Biroq 2019-yildan boshlab Gini koeffitsienti yana o'sish yo'nalishiga burilgan va 2024-yilda 0.287 darajasiga yetgan.




1-rasm. O‘zbekistonda Gini koeffitsientining 2010–2024 yillardagi o‘zgarishi¹

Bu holat respublika miqyosida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalar natijadorligining hududiy kontekstda farq qilayotganini ko‘rsatadi.

Empirik hisob-kitoblar shuni tasdiqlaydiki, daromadlar notekis taqsimlangan bo‘lib, aholining eng yuqori 20 foizli (V kvintil) qatlami umumiy daromadning 40 foiziga yaqinini egallagan, eng past 20 foizlik (I kvintil) qatlam esa 7.3 foiz daromad bilan cheklanmoqda. Bunday nomutanosiblik aholining ijtimoiy faollik darajasiga, ichki migratsiyaga va salbiy demografik oqibatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

2024-yil uchun mustaqil hisoblangan Gini koeffitsienti 0.2864 ni tashkil etdi, bu rasmiy statistik natijaga yaqin va hisoblangan kvintil taqsimoti asosida tasdiqlanadi.



2-rasm. 2024-yil uchun kvintil guruhlari bo‘yicha aholi daromad taqsimoti²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Taqdim etilgan grafikda daromadning asosiy qismini yuqori kvintil egallagani ko‘rinadi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda tabaqalashtirilgan yondashuvlarning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Texnologik imkoniyatlarning hududlar o‘rtasida nomutanosib taqsimlanganligi iqtisodiy tafovutlarning yangi o‘lchamlarini shakllantirmoqda. Ayni raqamli bo‘linish – ya’ni internetga kirish, AKT xizmatlari mavjudligi va raqamli savodxonlikdagi tafovutlar – ta’lim olish, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish va bandlik imkoniyatlarida jiddiy farqlarni yuzaga keltirmoqda [4].

Mazkur tafovutlar, ayniqsa, yoshlar va ayollar orasida iqtisodiy inklyuziyani cheklashi, natijada hududlararo ijtimoiy beqarorlik kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr.PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ¹strategiyasida hududiy muvozanatni ta’minlashga qaratilgan qator tashabbuslar ilgari surilgan. Jumladan, ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, past rivojlangan hududlarga investitsiyalarni yo‘naltirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi maqsadli dasturlar mavjud [6]. Ushbu strategik qarorlarning samarasi ko‘proq ularning hududiy ehtiyojlarga moslashtirilganligi, mahalliy boshqaruv tizimlarining faolligi va aholining ishtirok darajasi bilan belgilanadi [7].

Xitoy tajribasi asosida fan-texnika moliyasi bilan ekologik siyosatni uyg‘unlashtirish orqali hududlararo tengsizlikni yumshatish mumkinligi empirik asosda isbotlangan [8]. Bu holat O‘zbekiston sharoitida ham innovatsion strategiyalarni hududiy loyihalarga yo‘naltirish orqali iqtisodiy muvozanatga erishish imkoniyatlarini anglatadi.

Zanjon viloyati misolida qo‘llanilgan fazoviy modellashtirish usullari O‘zbekistonda hududiy differensialliklarni aniqlash va ularni kartografik ifoda orqali vizuallashtirish imkonini beradi. Bu uslub yordamida turli hududlarda qashshoqlik darajasi, xizmatlardan foydalanish imkoniyati va ijtimoiy himoya holatini tizimli ko‘rinishda aniqlash mumkin bo‘ladi [10].

Yuqoridagi tahlillar va grafiklar asosida aniqlanishicha, O‘zbekistonda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar hali ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ularni kamaytirish uchun statistik kuzatuvlarga asoslangan ilmiy yondashuvlar, texnologik rivojlanishni hududiy tenglashtiruvchi dasturlar, va ekologik barqarorlikni ham qamrab oluvchi innovatsion strategiyalar uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilishi zarur. Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy konvergentsiyaga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistonda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar mavjudligini aniq dalillar asosida tasdiqladi. Tahlil qilingan Gini koeffitsienti, kvintil taqsimoti va infratuzilma ko‘rsatkichlari hududlar o‘rtasida barqaror iqtisodiy va ijtimoiy tenglikka erishishda muammolar borligini ko‘rsatdi. Ayni paytda, mamlakatda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr.PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida <https://lex.uz/docs/-6600413>

olib borilayotgan strategik islohotlar va davlat siyosati ushbu tafovutlarni kamaytirishga qaratilganligini tasdiqlaydi.

Raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi, xizmatlarga bo'lgan teng kirish imkoniyatining cheklanganligi, hamda ijtimoiy infratuzilmaning yetarli darajada taqsimlanmaganligi iqtisodiy farqlarning asosiy omillari sifatida e'tirof etildi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni o'rganish va tahlil qilish mahalliy siyosatni boyitish uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, Xitoy va Malayziya tajribalari texnologik va innovatsion yondashuvlar orqali hududiy tenglikka erishishning samaradorligini ko'rsatdi.

Shu asosda quyidagi asosiy takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududlar bo'yicha strategik rejalashtirishni kuchaytirish – resurslar, infratuzilma va xizmatlar taqsimotida mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda differensial yondashuv zarur.

2. Raqamli tengsizlikni bartaraf etish – barcha hududlarda internet, AKT infratuzilmasi va raqamli xizmatlarga teng kirish imkoniyatini ta'minlovchi dasturlarni kengaytirish lozim.

3. Fazoviy tahlil asosidagi qarorlar qabul qilish – statistik va geoinformatsion tahlillarga tayangan holda hududiy siyosatni asoslash dolzarbdir.

4. Ijtimoiy xizmatlar va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish – ayniqsa chekka hududlarda ta'lim, sog'liqni saqlash, transport kabi xizmatlarni modernizatsiya qilish zarur.

5. Xalqaro tajriba asosida innovatsion mexanizmlarni joriy etish – ekologik va ilmiy-moliya strategiyalarini hududiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirish kerak.

O'zbekiston sharoitida hududlararo tafovutlarni bosqichma-bosqich kamaytirish mumkin. Buning uchun ilmiy asoslangan tahlil, manzilli yondashuv va islohotlarni hududiy kontekstda uyg'unlashtirish muhimdir. Bu yo'nalishdagi harakatlar, nafaqat iqtisodiy muvozanat, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham asosiy omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirsaidov, Sh. R. (2024). Hududlarni mutanosib rivojlanishini ta'minlashdagi global yondashuv va strategiyalar. CyberLeninka.

<https://cyberleninka.ru/article/n/hududlarni-mutanosib-rivojlanishini-ta-minlashdagi-global-yondashuv-va-strategiyalar>

2. Bobonazarova, J. X. (2023). Barqaror iqtisodiy o'sish asosida kambag'allikni qisqartirish mexanizmlarini boshqarish. <https://cyberleninka.ru/article/n/barqaror-iqtisodiy-o-sish-asosida-kambag-allikni-qisqartirish-mexanizmlarini-boshqarish>

3. Ibrohimovich, M. B. (2025). Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimi. Phoenix Publication. <https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/3291>

4. Tal'atova, D. B. (2023). Raqamli tengsizlikni barqarorlashtirishning iqtisodiy o'sishdagi o'rni. Digital Economy and IT, 22. <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/article/view/181>

5. Qazaqov, T. (2024). Aholi farovonligini oshirishda kreditlash tizimining roli. Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyot. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
6. Shirinov, A. Q. (2024). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish islohotlar tendensiyasi sifatida. Nordic University Conference Proceedings. <https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/view/720>
7. Yang, Y. (2024). The Management of State Financial Resources in China’s Higher Education: Enhancing Regional Equity, Efficiency, and Adequacy of Financial Provision (PhD dissertation). Sumy State University. https://essuir.sumdu.edu.ua/bitstream/123456789/97578/1/Yang_Yu_PhD_thesis_sig_ned.pdf
8. Fu, Y., & Wang, Z. (2025). Spatio-temporal pattern and convergence of the coupling coordination degrees between sci-tech finance and ecological civilization construction. [Science & Technology Progress and Policy], 42(5), 44–56. <https://doi.org/10.6049/kjbydc.2024030724>
9. Atkin, D., Costinot, A., & Fukui, M. (2021). Globalization and the ladder of development: Pushed to the top or held at the bottom? NBER Working Paper No. 29500. National Bureau of Economic Research. <https://doi.org/10.3386/w29500>
10. Abbasian, S., Sadeghi, H., & Mirabedini, S. J. (2024). Spatial modeling and analysis of poverty in Zanjan Province. Journal of Territorial and Community Planning, 16(2), 285–301. https://jtcp.ut.ac.ir/article_100301_d5a2a8deacf0791049d674caeea273af.pdf
11. Ridzuan, M. I., et al. (2024). Exploring Malaysia’s research trends in advancing UN SDG 1. Multidisciplinary Reviews, 7(2), e2025050. <https://doi.org/10.31893/multirev.2025050>
12. Slechten, A., & Mathys, N. A. (2019). Negotiating environmental agreements under asymmetric information: A preview of early negotiations. Environmental and Resource Economics, 73(1), 1–27. <https://doi.org/10.1007/s10113-018-1382-5>
13. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2024). “Aholi daromadlarining taqsimlanishi bo‘yicha statistik axborot”. <https://stat.uz>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**